

2-sinf 3-chorak

VII BO'LIM. ERTAKLARNING SEHRLI OLAMIDAN BAHRA OLAMIZ!

1-Mavzu: Ertaklar olami

Dars maqsadi:

- "Shirin uyqu" o'zbek xalq ertagi bilan tanishtirish;
- ertaklar janri haqida ma'lumot berish;
- to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish;
- muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish.

Tayanch so'zlar: ertak, xalq ogzaki ijodi, adabiy ertaklar.

Didaktik materiallar: ertaklar tasvirlangan rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkillashtirib olish.

Faollashtiruvchi mashq: Berilgan so'zni teskarisiga o'qing.

KATRE

II. Darsning asosiy qismi. (38 daqiqa)


Amaliy topshiriq.

Darslikdagi rasm asosida suhbat uyushtirish. Rasmlar qaysi ertakdan olingani muhokama qilinadi.

Muhokama uchun savol:

- Siz qanday ertaklarni bilasiz?
- Rasmda qanday ertaklar tasvirlangan?
- Sizga qaysi ertak ko'proq yoqadi?

Mavzuni tushuntirish. O'quvchilarga ertaklar janri haqida ma'lumot beriladi.



- *Ertaklarda xalq orzu-istaklari, ming yillik donoligi, tajribasi ifodalangan. Adolat va haqiqat ulug‘langan. Siz ertaklardan ko‘plab insoniy fazilatlarni o‘rganasiz. U sizni yaxshilikka yetaklaydi.*

Matn ustida ishlash.

“Shirin uyqu” ertagini o‘quvchilarga navbatma-navbat o‘qitiladi. Ertak matni yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Ota bolalariga nima deb vasiyat qilgan ekan?
2. Bu vasiyatni bolalari qanday tushunishdi?
3. Ayting-chi, ota vasiyatini qaysi o‘g‘il to‘g‘ri tushuna olgan ekan?
Fikringizni izohlang.
4. Uyqu shirin bo‘lishi mumkinmi? Nima uchun?
5. Siz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?
6. Ertakdan chiqargan xulosangiz bilan o‘rtoqlashing.

Ertak matnidagi notanish so‘zlar ustida ishlanadi.

vasiyat–o‘z yaqinlariga qoldirgan topshiriq, istak, nasihat.

chorpoya–ochiq havoda o'tirishga, yotishga mo'ljallangan yog'och karavot.

davlati ziyoda–boy, badavlat.

Ertakni o'quvchilar navbatma-navbat o'qitiladi. Ertak qahramonlariga baho beriladi va mashq daftariga yoziladi.

Mashq daftari bilan ishlash.


Ertak matnidan otaning bolalariga aytgan vasiyatini yoziladi.

Harflarni o'z o'rniga qo'yib, ertakdagi bosh g'oya aniqlanadi.

(Mehmondo'stlik)

“Bog'lang” mashqi.

So'z birikmalar ma'nosi bilan moslashtiriladi.



Darslikdan juftlikda ishlash uchun **“Savollar gulshani” mashqi** o'tkaziladi. O'quvchilar “Kim?”, “Nega?”, “Qachon?”, “Nima?”, “Nima uchun?” so'roqlari yordamida ertak asosida savollar tuzish topshirig'i beriladi. Savollarni bir-biriga berishadi va javoblar muhokama qilinadi.



IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

- Dars sizga yoqdimi?
 - Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?
- Darsda nimalarni bajardik?

V. Uyga vazifa. (1 daqiqa)

Ertakni o'qing va mazmunini so'zlab bering. Ertak mazmuniga mos maqollar toping.